



ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-6, (June) 2024
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

YUNUSOV Kamaldin Abzalovich

*Andijon davlat universiteti
Fuqarolik jamiyati nazariyasi kafedrasida
professori
siyosiy fanlar doktori*

TARIX FANINI O‘QITISH VA TADQIQOT OLIB BORISHNING NAZARIY- METODOLOGIK TAMOYILLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada tarix fanini o‘qitish va mazkur fan bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida qo‘llaniladigan nazariy-metodologik tamoyillar tadqiq qilingan. Ularning mohiyati, o‘ziga xos amal qilish xususiyatlari bayon qilingan. Shuningdek, tarix fanini o‘qitishga oid konsepsiyalar, ularning asosiy tamoyillari ilmiy paradigmalar sifatida – insoniyat tarixining umumiy qonuniyatlari, uning asosiy talablariga muvofiq bo‘lishligi ijtimoiy gumanitar fanlarining barcha yo‘nalishlari uchun ham konseptual ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: nazariya, tamoyillar, tarixiy jarayon, davrlashtirish, ob‘yektiv qonuniyat, sub‘yektiv omil, demokratiya, fuqarolik jamiyati.

АННОТАЦИЯ

В статье изучаются теоретико-методологические принципы, используемые при преподавании истории, и научные исследования, проводимые по этому предмету. Описана их суть, особенности применения. В статье обосновано, что концепции, связанные с преподаванием истории, их основные принципы как научные парадигмы - общие закономерности истории человечества, их соответствие основным требованиям концептуально важны для всех направлений социальных гуманитарных наук.

Ключевые слова: теория, принципы, исторический процесс, периодизация, объективная легитимность, субъективный фактор, демократия, гражданское общество.

ANNOTATION

The article examines the theoretical and methodological principles used in teaching history, and scientific research conducted on this subject. Their essence and application features are described. The article substantiates that the concepts associated with teaching history, their basic principles as scientific paradigms - the general patterns of human history, their compliance with basic requirements are conceptually important for all areas of the social humanities.

Key words: theory, principles, historical process, periodization, objective legitimacy, subjective factor, democracy, civil society.

Tarix fanini o‘qitishdan maqsad: eng avvalo, yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish zaruriyatidir. Chunki, tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali yoshlarda tarixiy voqealikni teran anglashi, xolis bahoashi, voqealikning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushinishi mumkin.

Tarix fanini o‘qitishda va bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda bir qator tamoyillar, nazariy-metodologik jihatlar borki, ularga amal qilmasdan, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Ana shu tamoyillarga amal qilish, ularning ketma-ketligiga, mantiqiy jihatlariga e'tibor berish - o'z navbatida, tarixni tushunishni va bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qulayliklar yaratadi hamda ularning izchilligini ta'minlaydi. "Ilmiy asoslangan konsepsiya nafaqat fan sohalarining rivojiga ta'sir qiladi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti taraqqiyotiga ham kuchli ijobiy turtki bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, ijtimoiy hayotda va ilmiy faoliyatda qo'llaniladigan, ilmiy asoslanmagan tushuncha, sub'yektiv qarash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga zid bo'lgan g'oyalarning salbiy oqibati - millat, davlat, hattoki insoniyatning o'limi bilan yakunlanadi" [8. B. 70]. Mazkur ilmiy maqola ana shu muammoga bag'ishlanadi.

Hozirda, tarix fanlarini o'qitishda hamda o'rganishdagi tamoyillardan biri - insoniyat tarixini, O'zbekistonda kechgan tarixiy voqealarini boshqa davlatlar, xalqlar tarixi bilan uzviy bog'lagan holda o'rganish lozimligidir. Tariximiz bilan bog'liq voqea-hodisalarni tadqiq etishda ana shu tamoyillar rioya qilish lozim.

"O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyun, PQ-3105-sonli qarorida: "O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv-metodik, ma'rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy ta'lim muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish" [1] zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Ana shu talabga muvofiq, O'zbekiston tarixida hozirgacha ro'y bergan voqealikni tarixning ob'yektiv rivojlanish qonuniyatlari va har bir davrda amal qilgan sub'yektiv omillar ta'siri bilan o'zaro solishtirgan holda tahlil qilish va shu orqaligina tarixiy haqiqatni ochib berish mumkin.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda ham va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda ham amal qilish lozim bo'lgan nazariy-metodologik yondashuvlardan biri, tarixiy voqealikni davrlashtirishdir. Shuning uchun, har qanday davlat, millat va xalqlar tarixini o'rganishda, eng avvalo, ularning tarixi qanday davrlarni boshidan kechirganini va bu tarixiy davrlar o'zaro farqlanuvchi jihatlarini aniqlash bilan o'rganilishi lozim. Muammoning qiyin tomoni, tarixni davrlashtirishda nimaga asoslanmoq joiz? Tarixni davrlashtirishda ham, uni haqqoniy, real va xolis bayon qilishda qanday metodologiyaga, nazariy-konsepsiyaga asoslanish zarur? Bularning hammasi o'ta muhim va belgilovchi ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda ushbu muammo o'zining murakkab jihatlariga ega. Masalan, sovet tuzumi davrida amal qilingan tarixga marksistik yondashuv o'zining dolzarbligini yo'qotgan. Hozirda, O'zbekistonda tarix fanlarini o'qitishda va ushbu fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yangichametodologik yondashuvlarga asoslangan tarzda olib borish lozimdir. Mazkur ilmiy maqola aynan ana shu muammoga bag'ishlanadi.

2023 yil 8 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida "Tarixni davrlashtirishga zarurat bormi? Yangicha qarashlar, yondashuvlar va takliflar" nomli umummilliy ilmiy yig'in bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning nufuzli olimlari chiqish qilib, o'z fikrlari, ilmiy qarashlari va takliflarini bildirgan edi. Jumladan, tadbirda so'zga chiqqan tarix fanlari nomzodi Baxtiyor Alimjanov davrlashtirishda har bir olimning o'z qarashi bo'lishi kerakligini, bu borada bir nechta maktab shakllanishi zarurligini aytib o'tgan [9].

Mazkur anjumanda, tarix fanini davrlashtirish quyidagicha talqin qilingan. Tarixdan oldingi davr, antik davr yoki qadimgi dunyo tarixi davri, o'rta asrlar, yangi dunyo tarixi yoki yangi davr, eng yangi davr va hozirgi zamon davrlaridan iborat qilib ko'rsatilgan. Anjumanda Markaziy Osiyo tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga olishi ko'rsatib o'tildi. Islomgacha bo'lgan davr, mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davr yoki turk-musulmon sulolari davri, Rus bosqinigacha bo'lgan davr, SSSR va uning qulashigacha bo'lgan davr, milliy mustaqillik yoki postsovet davrlari [10].

Tarixiy xronologiya - tarixiy voqealarning davriy tadrijiyligiga asoslangan metodologik tamoyil boʻlib, bu tamoyil barcha xalqlar tarixini tadqiq qilishga, oʻrganishga taalluqlidir. Ilmiy tadqiqotlarda tarixiy xronologiyaga amal qilmaslik, tarixiy voqea-hodisalarning ketma-ketligi qoidalarining buzilishiga, qolaversa, oxir-oqibat, millat va davlat tarixiga oid muhim tarixiy jarayonlarning mantiqiy bogʻlanishi zanjirining uzilishiga olib keladi.

Millat va davlatlar tarixini davrlashtirishni oʻzida mujassamlashtirgan tarixni xronologik asosda oʻrganish va oʻqitish tamoyili, ularning mazmun-mohiyatiga, tarixiy voqealarga falsafiy asosda qarashni talab etadi. Chunki tarixni, tarixiy voqealarni falsafiy asosda tahlil qilish – muayyan tarixiy davrga taaalluqli boʻlgan voqea-hodisalarning asl mohiyatini anglashga, ochib berishga xizmat qiladi.

“Davrlashtirish – tarixga oid manbaalarni tahlil qilish va tartibga solishning samarali usulidir. Tarixni davrlashtirish, tarixiy jarayonlarni shartli ravishda maʼlum bir xronologik davrlarga ajratishning oʻziga xos tizimidir. Bu davrlar oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Davrlashtirish uchun mezon sifatida jamiyatdagi tub oʻzgarishlar qabul qilingan. Tarixni davrlashtirish tarixiy jarayonlarni yaxshiroq tushinish uchun zarur” –deb taʼkidlaydi t.f.n., dots. S.S.Qudratov oʻzining “Oʻzbekiston tarixini davrlashtirishga doir ayrim mulohazalar” nomli maqolasida [10].

Tarixni davrlashtirish, bizningcha, tarixiy voqea hodisalarni oʻzaro qiyosiy tahlil qilish uchun ham zarurdir. Masalan, Oʻzbekistonning mustaqillik davrining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va maʼnaviy jihatdan olib qaraganda, undan avvalgi, shoʻro tuzumi davri bilan solishtirish, qiyoslash orqali, ularning bir-biridan afzal ekanliklari oydinlashadi. Nafsilambirini aytganda, Oʻzbekiston va oʻzbek xalqi, mustaqillik davrida milliy mustaqillik tufayli oʻzining asrlar davomida erishgan buyuk bir baxtini qoʻlga kiritdi. Buni bir soʻz bilan bayon qilish qiyin. Istibdod davrida oʻzbek xalqi mutelik, tobelik, oʻz taqdirini mustaqil xalq qila olmaslik, maʼnaviy jihatdan tushkunlik, milliy, diniy, manfaatlarining toptalishi va moddiy va maʼnaviy boyliklarining oʻzga xalq tomonida talon-taroj qilinishlarini boshidan kechirda.

Navbatdagi nazariy-metodologik tamoyil, tarixiy voqealikning asl mohiyatini ochib berish masʼuliyatidir. Masalan, yaqin oʻtmishimizda sodir boʻlgan, 2005 yil Andijonda roʻy bergan 12-13 may voqeasi - “Andijon voqeasi”ning turlicha koʻrinishda talqin qilishlar mavjud. Bunday talqinlar, tarixiy hodisaning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qilmogʻi lozim. Bunday talqinlar asl mohiyatini ochib berish masʼuliyati nafaqat davlat rahbarlari, siyosatchilar, islom dini ulamolari, ijtimoiy fan olimlarining zimmasida, balki eng avvalo, tarixchilarning ham xolis baxosi bilan ham bogʻliqdir. Chunki mazkur mashʼum voqea ortida qanchadan-qancha yurtdoshlarimiz, ayollar, keksalar, bolalar hayoti, eng muhimi, millatimizning kelajak taqdiri turibdi.

Mazkur voqea, eng avvalo, siyosiy mohiyatiga ega boʻlib, shuningdek, oʻzining milliy, diniy, maʼnaviy, ijtimoiy jihatlariga ham ega boʻlganligi munosabati bilan, ularni turlicha rakurslarda baxolash mumkin. Bizningcha, 2005 yil Andijonda roʻy bergan 12-13 may voqeasi – eng avvalo, oʻzbek millatining tarixiy taraqqiyoti istiqbolini nazarda tutgan holda, oʻzining siyosiy lashgan din niqobidagi ekstremistik mohiyati bilan baxolanishi lozim.

“Andijon voqeasi” – qurolli toʻqnashuvni keltirib qiqargan ijtimoiy, din niqobidagi ekstremistik guruh – “akromiyalar”, aslida dunyo miqyosida “Xalifalik”ni oʻrnatish gʻoyasini ilgari surgan, xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi “Hizbu tahrir” diniy-ekstremistik oqimning Andijonda tashkil qilingan shaxobchasi sifatida ish yuritgan. Yuqorida keltirilga voqealar bilan bogʻliq qarashlarimizni tasdiqlovchi tarixiy xujjatlar keragicha mavjud.

Tarixiy voqealikni falsafiy asosda tahlil qilish oʻziga xos nazariy-metodologik tamoyil boʻlib, unda oʻrganilayotgan yoki oʻqitilayotgan tarixiy hodisalarning asl mohiyati oʻz davri mazmunidan kelib chiqqan holda bayon etilishi talab etiladi. Tarixiy voqealikni falsafiy asosda tushunish va tushuntirishning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

Taniqli siyosatshunos olim, professor Narzulla Jurayev o'zining "Tarix falsafasining nazariy asoslari" nomli monografiyasida "Tarixni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uni idrok etish, yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar orqali muayyan davrning siyosiy va ma'naviy muhitini baxolash, xar bir davr kishilari ruhiyati, ma'naviy-axloqiy mezonlari, voqea-hodisalarga munosabatini o'rganish, uni falsafiy idrok etish tarix falsafasi tushunchasining mazmunini belgilaydi" [4, B.12] – deb, ko'rsatib o'tgan.

"Tarix haqiqati – bu konkret voqealar, aniq, hodisalar va munosabatlar majmuidir. Aksincha, agar u mavhum hodisalar yig'indisidan iborat bo'lsa, afsonaga aylanadi" [4, B.18] – deb ta'kidlagani ayni haqiqatdir. "Xolis, haqqoniy tarixni esa manbasiz, undagi xilma-xil boy ma'lumotsiz yozib bo'lmaydi" [5, B.349].

Shu bilan birga, tarixga oid manbalar, ma'lumotlarning asl mohiyatini ochib berish mas'uliyati ham tarixnavisning zimmasida bo'ladi. "Noto'g'ri yondashuvlar, noto'g'ri metodologiya va tarixiy hodisalarni tahlil qilish natijasida butun bir xalq tarixini o'rganishda ob'yektiv yondashuvning mohiyati yo'qoladi. Natijada davlat va millatning jahon hamjamiyati oldidagi nufuzi pasayadi. Yaqin tarixdan quyidagi misolni olaylik.

Sovet Ittifoqida 73 yil davomida O'rta Osiyo va O'zbekiston xalqlari tarixiga g'ayriilmiy yondashish natijasida, real tarixiy voqealar buzib ko'rsatildi, ularning tarixi siyosiy maqsadlar asosida kamsitildi" [8, B.67].

Tarix fani, xususan, O'zbekiston tarixini o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillaridan navbatdagisi - tarixiy jarayonning mantiqiy jihatdan analitik tahlil qilish zarurligi. "Tarixiy jarayonning mantiq bilan bog'liqligi muayyan bir hodisaning nima uchun boshqa shaklda emas, aynan shu shaklda, nima uchun oldinroq ham emas, keyinroq ham emas, ayni shu paytda yuz berganini ypganish bilan belgilanadi. Zotan, har qanday voqea tagida mantiq yotishi shubhasiz. Aks holda mamlakatlar, saltanatlar orasidagi kurashlar maqsadsiz va natijasiz bo'lardi" [4, B.38].

Tarixni, xususan, O'zbekiston tarixini o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillaridan yana biri, tarixni davrlashtirishda qanday yondashuvga asoslanmoq lozimligi muammosidir. Tarixiy davrlarga formatsion yondashuv, sivilizatsion yondashuv, evolyutsion yondashuv kabi yondashuvlar mavjud bo'lib, ular, o'tmish tariximizda turlicha ravishda qo'llanilgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniy o'zining tarixga oid asarlarini yozishda sivilizatsion, evolyutsion yondashuvlar va tarixiylik hamda mantiqiylikka asoslanib bayon qilgan.

Abu Rayxon Beruniy o'zining mazkur asarida tarixga, tarixiy voqea-hodisalar jarayoniga sivilizatsion yondashuvdan foydalanib, bir tarixiy davrning o'zidan avvalgi tarixiy davr tarixiga nisbatan salbiy jihatlarni ham ko'rsatib o'tgan. Masalan, Abu Rayxon Beruniy mazkur asarida, O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi natijasida madaniyatimiz durdonalari yo'qotilib yuborilgani haqida achinib: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va [bilimini] boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi" [3, B.72] – deb yozgan.

Demak, "sivilizatsion yondashuv insoniyatning tarixiy rivojlanishini o'rganishda formatsion yondashuvga qaraganda ancha kengroq va boyroqdir. Bu nafaqat sinflar va ijtimoiy guruhlarining qarama-qarshiligini, balki umuminsoniy qadriyatlar asosida ularning o'zaro ta'sir doirasini, nafaqat sinfiy qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lishi orqali, balki insonning barcha xatti-harakatlariga singib ketgan ruhiy tamoyillarning umumiylikni ham ajratishga imkon beradi. Inson faoliyatining turli sohalarida sivilizatsiya ijtimoiy hayot normalarni shakllantiradi, ular o'zlarining barcha farqlariga qaramay, barcha madaniy va ijtimoiy guruhlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, shu bilan ularni yagona bir butunlik doirasida jamlaydi" [8, B.69].

Tarixni o'qitish va tarixiy voqea-hodisalarni tadqiq etishdagi nazariy-metodologik tamoyillardan yana bir muhim tamoyil - tarixiy voqealikni ilmiy jihatdan asosli ravishda bayon etishda, insoniyat tarixining qonuniyatlariga, xususan ob'yektiv qonuniyatlariga asoslanmoq tamoyilidir.

Mazkur tamoyilning murakkab jihati shundan iboratki, muayyan tarixiy davr kesimida ana shu ob'yektiv qonuniyatlarni to'g'ri anglay bilish va asoslay olishdadir. Ma'lumki, tarix qonunlari muayyan tarixiy davr o'tishi bilan o'zidan avvalgi tarixiy davrda amal qilgan qonuniyatlardan farq qiladi. Bunda, inkorni inkor qilish qonuniga muvofiq, birin o'rnini boshqasi egallaydi.

Obyektiv qonuniyatlar sirasiga: ilohiy qonuniyatlar, tabiat qonuniyatlari, jamiyat (ijtimoiy) qonuniyatlari va tarix qonuniyatlari kiradi. Shuni ham eslatmoq lozimki, ilohiy qonuniyatlarni hech bir tarixiy davr, davlat, millat va shaxs buza olmagan va buza olmaydi ham.

Ilohiy qonuniyatlarni o'zgartirish, ularni buzish hech bir insonning qo'lidan kelmaydi. Ilohiy qonuniyatlardan bexabarlik, ularga bepisandlik, ularga amal qilmaslik, oxir oqibat millat, davlat va insonga bu dunyoda ham xorlik keltiradi. Ammo, ayrim xollardagina inson o'zining muayyan ezgu amallari bilan ilohiy, taqdiri azalga o'zgartirishlarlar kiritishi mumkin. Tarixda bunday hollar ko'p bor ro'y bergan. Bu alohida mavzu bo'lganligi uchun unga ushbu maqolamizda bu mavzuga to'xtalib o'tmaymiz. Formatsion yondashuv asosan marksizm g'oyasiga asoslangan ilmiy adabiyotlarda aks etadi. Bu yerda jamiyatning rivojlanishi tabiiy tarixiy jarayon sifatida ko'rib kelingan va mazkur jarayonda muayyan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar bir-birini almashtiradi.

Formatsiya deganda olimlar insoniyat tarixining ma'lum davrlarini nazarda tutadi. Bu davrlarga o'ziga xos ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari xos va aynan shu bilan bir-biridan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, mazkur yondashuv tarafdorlari fikriga ko'ra, faqat burjua tizimga xos hamda u siyosiy va iqtisodiy sohalari o'rtasida turadi.

Sivilizatsion yondashuvning nazariy asoschilari sifatida O.Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokina e'tirof etilmoqda. Ularning fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyati boshqa jamiyat shakllaridan bir qadar yuqori rivojlanish darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy me'zoni esa – insonning huquq va erkinliklari, ularni amalga oshirish real mexanizmlari mavjudligi, hamda inson o'zining potensialini to'la qonli namoyon etish qobiliyati bilan izohlanadi.

Sivilizatsion davrlashtirish g'oyasi A. Toynbining 12 tomlik "Tarixni anglash" deb nomlangan asarlarida bayon qilib, "Har bir davrda va har bir jamiyatda tarixni o'rganish va bilish, boshqa ijtimoiy faoliyat kabi, ma'lum bir zamon va makonning hukmronlik tendensiyalariga bo'ysunadi"- deb ta'kidlagan [11].

Lekin, shuni ham ta'kidlash lozimki, sivilizatsion yondashuvda jamiyatning siyosiy va iqtisodiy xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan. Kishilik jamiyati sivilizatsiyasi o'zining tarixiy rivojlanishi davomida o'ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Ob'ktiv xarakterga ega bo'lgan tarix qonunlari, o'z xarakteriga ko'ra, tarixiy davr nuqtai nazaridan ijtimoiy qonunlardan farq qiladi.

Nemis olimi York Rozen an'anaviy tushunchalarni yangi va afzalroq tushunchalar bilan qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi [12, B.41].

Endryu Targovskiy "sivilizatsiya dunyosi doimiy xarakterga ega va bu avtonom sivilizatsiyalar rang-barangligi sifatida ham qabul qilinadi", – deb yozadi. Bunda faqat bitta dunyo sivilizatsiyasi mavjud, ammo so'nggi 6000 yil ichida rivojlangan 29 ga yaqin asosiy avtonom sivilizatsiyalar mavjudligini ko'rsatib o'tadi [13].

"Insoniyat sivilizatsiyasi o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tdi. Bu bosqichlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy xarakterdagi qonuniyatlar va munosabatlar bilan ajralib turadi. Bu hodisalar jamiyatning tarixiy qonuniyatlari deb ataladi" [8. B. 68]. Tarix qonuniyatlari, jamiyat qonuniyatlaridan farqli, ayrim mintaqalar, davlatlar doirasida va muayyan davrlar kesimidagina amal qiladi.

Jahon tarixi, xususan, O'zbekiston tarixini o'qitish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda sub'yektiv omillarning rolini ko'rsatish zarurligi ham muhimdir. Tarixni o'qitish va tarixiy voqealarni tadqiq etishda sub'yektiv omillar tarixiy jarayonlarga salmoqli ta'sir ko'rsatib, bunday ta'sirlarni ijobiy, salbiy, xal qiluvchi, asosiy, ikkinchi darajali kabi turlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Taniqli siyosatshunos olim, siyosiy fanlar doktori, professor To'liqin Alimardonov, kishilik jamiyati tarixidagi qonuniyat – tarixda shaxsning roli masalasini tahlil qilar ekan, uni sohibqiron Amir Temur bobomiz misolida shunday baxolaydi:

“Unga ko‘ra tarixning murakkab, ayni paytda insoniyat uchun tahlikali, ba‘zan halokatli chorrahasida shaxs xaloskor bir siymo sifatida kirib keladi... Hayratlanarlisi shundaki, bir shaxs dunyo tamaddunini o‘zgartirishga qodir kuchga ega bo‘ladi. Insoniyatni zulmatdan yangi taraqqiyot yo‘liga olib chiqadi” [6, B.256].

Professor To‘lqin Alimardonov fikrini davom ettirib, shunday yozadi: “Tarixiy murakkab jarayonlarda favqulodda salohiyati bilan shunday siyosiy makon yaratiladiki, unda barchaning orzu-umidlari hayotiy reallikka aylanar ekan. Amir Temur bobomiz jamiyatning ana shunday adolatli davlat shaklini vujudga keltirishga erishadi. Sohibqiron juda katta hududda o‘z saltanatini o‘rnatib, kuchli ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy va moddiy salohiyat tizimini vujudga keltiradi” [6, B.308].

Sohibqiron so‘zining ma‘nosi: sohib –egasi, qiron – yaqinlashuv, ya‘ni Mushtariy (Yupiter) va Zuhul(Saturn) sayyorolari har 800 yilda bir marotaba o‘zaro yaqinlashishi kuzatilgan. Ana shu davrda, qiron kechasida tug‘ilgan chaqaloq, kelajakda buyuk shaxs bo‘lib yetishadi.

Mushtariy (Yupiter) va Zuhul(Saturn) sayyoralarining Quyosh atrofidagi harakati har 800 yilda bir marotaba o‘zaro mos tushadi. Shu davrda tug‘ilganlar orasida jahonshumul ahamiyatga ega kishilar dunyoga kelishi kuzatilgan. Tarixdan janobi Rasululloh Muhammad alayhissalom, Sohibqiron Amir Temur Ko‘ragon, Aleksandr Makedonskiylarni misol sifatida keltirish mumkin. Ular tarixiy shaxs sifatida jahon taraqqiyotida olamshumul rol o‘ynaganlar [7, B.17].

Hozirgi davrda, yurtimizda demokratik va ijtimoiy davlat barpo etishning asosiy tamoyillari, barcha ijtimoiy-gumanitar, xususan, jahon tarixi hamda O‘zbekiston tarixi fanlarini o‘qitishda nazariy-metodologik asos va konsepsiya sifatida amal qiladi. Chunki demokratiya o‘zining qat‘iy tamoyillari bilan jamiyat hayotida muhim missiyani bajaradi. Demokratiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: qonuniylik, erkinlik, tenglik, qonun ustuvorligi, plyuralizm, inson huquqlari, ijtimoiy shartnoma, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, konsensus kabilar.

Yurtimizda shakllanib kelayotgan fuqarolik jamiyatining muhim belgilari quyidagilardan iborat:

1. Eng avvalo, millatning siyosiy, iqtisodiy va boshqa barcha sohalarda to‘la mustaqil bo‘lishligi;
2. Mamlakatda tinchlik va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta‘minlanganligi. Har qanday qurolli urush harakatlarining yo‘qligi.
3. Fuqarolarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy (mulkiy, moliyaviy) jihatdan mustaqil bo‘lishligi;
4. Aholining barcha qatlamlari yuksak darajada ongli bo‘lishligi;
5. Aholining barcha qatlamlarining xususiy, shaxsiy mulkka ega bo‘lishi va moddiy farovonlik darajasining yuksalishi;
6. Keng aholi ommasining har jihatdan faolligi;
7. Mamlakatda aholi turli qatlamlarining ijtimoiy, diniy e‘tiqodi, etnik jihatdan kelib chiqishi qat‘i nazar inoq bo‘lishligi;
8. Jamiyat hayotida davlat tomonidan bajariladigan ko‘plab ijtimoiy funksiyalarning fuqarolik jamiyati institutlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘tkazib borilishi;
9. Kishilarning millat, jamiyat va hududiy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan ishtirokining yuksak maqomga ega bo‘lishi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixiga oid tarixiy ma‘lumotlarni yoshlar ongiga yetkazishda, hozirgi davrga oid tarixiy voqealik bo‘yicha dars olib borishda hamda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tamoyillarga muvofiq, ularga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Mavzu bo‘yicha fikrimizni yanada davom ettirib, tarixiy dialektika xususida ham to‘xtalib o‘tish lozim, deb hisoblayman. Chunki tarixiy dialektika – avvalo, tarixiy hodisalarning xronologiyasiga asoslangan bo‘ladi. Tarix fanlarini o‘qitishda va mazkur fanlardan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda amal qilinadigan dialektik yondashuv, kishilik jamiyati tarixiy voqealigining barcha bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlaydi. Shuningdek, tarixni o‘qitishda dialektik yondashuv, tarixda sodir bo‘lgan voqealarning asl sababi, ularni yuzaga kelishi jarayoni va amal qilishini o‘rganish hamda o‘qitishning muhim metodologik usuli sifatida qo‘llanilishi lozim.

Tarixiy voqea va hodisalarning “falsafa bilan bog‘liqligi shundaki, tarixiy haqiqat falsafiy tafakkur orqali tahlil qilinsa, o‘quvchi fikrlashga o‘rganadi. Tarixni o‘qish va tarixiy jarayonlarni o‘rganish asnosida uning mushohadasi kengayadi, dunyoqarashni yzgartiradi, tafakkuri boyiydi” [4, B.38]. Tarix fanini o‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad - yoshlar dunyoqarashida tarixiy tafakkurni shakllantirishdir. Talaba yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali ular, tarixiy voqealarni teran anglashi, xolis baholashi, voqealarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunishi mumkin.

Tarixni o‘rganishda qiyosiy tahlil ham muhim metodologik tamoyillardan biridir. Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining arabcha nomi “Al osor al-boqiya an al-qurun al-holi” [3] bo‘lib, Yevropada “Xronologiya”, o‘zbek sharqshunosligida «Osor al-boqiya» nomi bilan mashhur asarida: yunonlar, rumliklar, eroniylar, so‘g‘diylar, xorazmlilar, harroniylar (yulduzga topinuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo‘lgan arablar va musulmonlarning yil hisoblari, xayitlari va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab beradi. Unda juda ko‘p tarixiy voqealar, turli millat va dinlarga oid muhim ma‘lumotlar, payg‘ambarlar va soxta payg‘ambarlar, podshohlar, mashhur tarixiy shaxslar va olimlar haqida ham axborotlar berilgan [3, B.14.].

Bunday qiyosiy tahlil o‘z navbatida, insoniyat tarixini bevosita falsafiy o‘rganish, mantiqiy xulosalar chikarishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Mazkur ilmiy-uslubiy maqolamizda bayon qilingan fikr va mulohazalarimizdan quyidagi xulosalarni chikarish mumkin.

1. Hozirda, yurtimizdagi ta‘lim muassasalarida, ayniqsa, tarix fani bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olayotgan yoshlar ongida – tarix fanini o‘qitishdan asosiy maqsad: yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish zaruriyatini shakllantirish lozim. Chunki, tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali yoshlarda tarixiy voqealarni teran anglashi, xolis baholashi orqaligina voqealarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunishi mumkin.

2. Tarix fanini o‘qitishda va bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda bir qator tamoyillar, nazariy-metodologik jihatlar borki, ularga amal qilmasdan, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Ana shu tamoyillarga amal qilish, ularning ketma-ketligiga, mantiqiy jihatlariga e‘tibor berish – o‘z navbatida, tarixni tushunishni va bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qulayliklar yaratadi hamda ularning izchilligini ta‘minlaydi.

3. Bu tamoyillar, nazariy-metodologik jihatlar quyidagilardan iborat: tarixni davrlashtirish – tarixiy xronologiyaga asoslanmoq lozimligi. Tarixiy xronologiya – tarixiy voqealarning davriy tadrijiyligiga asoslangan metodologik tamoyil bo‘lib, bu tamoyil barcha xalqlar tarixini tadqiq qilishga, o‘rganishga taalluqlidir.

4. Tarix fanini o‘qitishda va bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda tarixiy voqealarning asl mohiyatini ochib berish mas‘uliyati ham o‘zining muhim ahamiyatiga ega.

5. Yoshlarda ilmiy va tarixiy dunyoqarashni shakllantirishda o‘tmish voqea-hodisalarni falsafiy jihatdan mushohada qilish - o‘ziga xos uslubiy tamoyil sifatida amal qiladi. Chunki tarix falsafasi – tarixiy voqea va hodisalarning asl mohiyatini anglash uchun zarurdir.

6. Tarix fani, xususan, Vatanimiz tarixi, eng yangi tarixi bo‘yicha o‘qitishda va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda tarixiy vaqt va zamon nuqtai nazaridan davrlashtirish muhimdir. Xususan, hozirda, tarixiy davrlarga formatsion yondashuv, sivilizatsion yondashuv, evolyutsion yondashuv kabi metodologik tamoyillar qo‘llanilmoqda.

7. Insoniyat tarixini, xususan, O‘zbekiston tarixini o‘rganishda va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda tarix qonunlariga, xususan ob‘yektiv qonuniyatlarga asoslanmoq joizdir. Shuningdek, tarixiy voqealarni o‘rganishda sub‘yektiv omillarning rolini ham ko‘rsatish muhim metodologik tamoyil bo‘lib xizmat qiladi.

8. O‘zbekistonda tarix fanlarini o‘qitishda va ilmiy tadqiqotlarni olib borishda - demokratik tamoyillar, shuningdek, ijtimoiy yo‘naltirilgan ijtimoiylashgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining tamoyillari ham nazariy-metodologik asos va konsepsiya sifatida amal qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3105-son qarori. [Internet manba]. URL: <https://lex.uz/docs/3251707?ONDATE>. (Murojaat etilgan sana:2023 yil.11.09.)
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 11 sentyabrya 2023 goda № PF-158 «O strategii Uzbekistana – 2030». Informatsiya iz Interneta [Elektronnyy resurs]. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan. 1968. 486 bet.
4. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma‘naviyat. 2008. 464 bet.
5. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti. 2001.352 bet.
6. Alimardonov To‘lqin. Amir Temur imperiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2021. 320 bet.
7. Yunusov K. Muchal va burjlar: tolenoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2017 yil. 255 bet.
8. Yunusov K.A. Sivilizatsionnyy podxod k izucheniyu istoricheskogo razvitiya Sredney Azii, v tom chisle i Uzbekistana. // «Philosophy and Life» mejdunarodnyy jurnal, 2020. Issue: 9. – S.66–76.
9. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish. Bizga qanday davrlashtirish kerak? Internet ma‘lumoti. [Internet manba]. URL: <http://uz.hook.report/2022/10/tarix/>.(Murojaat etilgan sana: 2023 yil 13 dekabr.
10. S.S. Qudratov. O‘zbekiston tarixini davrlashtirishga doir ayrim mulohazalar. [file:///C:/Users/acer/Downloads/+59%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/acer/Downloads/+59%20(1).pdf). (Murojaat etilgan sana: 2024 yil. 02. 28.)
11. Toynbi A. Dj. Postijeniye istorii. – Moskva: Progress,1991. – 736 s. [Elektronnyy resurs]. URL: <http://gumilevica.kulichki.net/Toynbee/Toynbee001.htm>. (data obracenyiya: 2023. 06.24.
12. Yorn Ryuzen. Historical perspectives on technology, culture, and society. [Online]. URL: <https://public-history-weekly.degruyter.com/5-2017./culture-civilization-and-historical-consciousness> (Date of Access: 07 DEKABRYa 2017 G).
13. Stepan Sulakshin. Civilization genesis in global historical time 08 December 2014. [Online]. URL: http://rusrand.ru/en/docconf/civilization-genesis-in-global-historical-time_08_dekabrya_2014. (Date of Access: 2014 yil 08 dekabr).
12. Jorn Rysen. Historical perspectives on technology, culture and society.(2017) [Online]. URL: <https://public-history-weekly.degruyter.com/5-2017./cultural-civilization-and-historical-consciousness> (Accessed: DECEMBER 7, G).
13. Stepan Sulakshin. Genesis of civilization in global historical time (2014) [Online]. URL: <http://rusrand.ru/docconf/civilization-genesis-in-global-historical-time> December 08, 2014 (Accessed: December 08, 2014).